"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in Central Asia*
*international academic peer reviewed journal*

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии*
*международный научный рецензируемый журнал*

**2024/3 (12)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

**ISSN 2049-3630** **TOSHKENT**

**TAHRIR HAY'ATI RAISI:**
**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** *(Bosh muharrir) – pedagogika fanlari doktori, professor.*

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**
**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
**SAIDOVA Galina Karimovna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** *(Bosh muharrir o'rinbosari) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna** – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*
**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
**ZOXIDOV Azamat Azamjonovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
**ZIYAYEV Azamad Xamidovich** – *tarix fanlari doktori, professor.*
**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – *psixologiya fanlari doktori.*
**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**
**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** *(Главный редактор) – доктор педагогических наук, профессор.*

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**
**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*
**Саидова Галина Каримовна** – *доктор экономических наук, профессор.*
**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – *доктор психологических наук, профессор.*
**Абдураманов Хамид Худайбергенович** *(Заместитель главного редактора) – доктор экономических наук, профессор.*
**Бекмурадов Адхам Шарипович** – *доктор экономических наук, профессор.*
**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.*
**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – *доктор педагогических наук, профессор.*
**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – *доктор экономических наук, профессор.*
**Саидов Акмал Холматович** – *доктор юридических наук, профессор.*
**Якубжанова Дилобар Батировна** – *доктор педагогических наук, доцент.*
**Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна** – *кандидат медицинских наук.*
**Зохидов Азамат Азамжонович** – *доктор экономических наук, профессор.*
**Зияев Азамад Хамидович** – *доктор исторических наук, профессор.*
**Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли** – *доктор психологических наук.*
**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

**THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**
**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**
*(Editor-in-Chief) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

**MEMBERS OF THE EDITING BOARD:**
**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
**Saidova Galina Karimovna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Shoumarov Ghayrat Bakhramovich** – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** *(Deputy Editor-in-Chief) – Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Marufova Gulnora Makhmudovna** – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Saidov Akmal Kholmatovich** – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – *Candidate of Medical sciences.*
**Zokhidov Azamat Azamjonovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
**Ziyayev Azamad Khamidovich** – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – *Doctor of Psychological Sciences.*
**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

**XALQARO TAHRIR HAY'ATI:**

**Doktor Rashmini Koparkar,**
*Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti Xalqaro tadqiqotlar maktabi, Javoharlal Neru universiteti, Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**
*Chelyabinsk davlat madaniyat instituti, pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**
*Texnologiya fakulteti boshlig'i, London biznes va moliya maktabi, Singapur*

**МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Доктор Рашмини Копаркар,**
*Доцент Центра исследований России и Центральной Азии, Школа международных исследований, Университет Джавахарлала Неру, Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина Иосифовна,**
*Челябинский государственный институт культуры, доктор педагогических наук, профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**
*Руководитель Технологического факультета Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур*

**INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Dr. Rashmini Koparkar**
*Assistant Professor*
*Centre for Russian and Central Asian Studies*
*School of International Studies*
*Jawaharlal Nehru University*
*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**
*Chelyabinsk State Institute of Culture*
*Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**
*Head, School of Technology*
*London School of Business and Finance, Singapore*

## MENEJMENT

**Иноятова С.Р.** Сравнительный анализ эффективности тренинговой программы по усовершенствованию профессионально-важных качеств у лидеров молодежи................................4

## SOTSIOLOGIYA

**Butayeva X.Y.** Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyi sharoitiga moslashtirishning sotsiologik xususiyatlari ................................................................10

**Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S.** Intellektual migratsiyani tadqiq etishning konseptual asoslari .............14

**Norboyeva S.M.** Talabalarda ma’naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning nazariy asoslari...............................................................21

## OILA VA JAMIYAT

**Xatamov B.Q.** O‘smirlar ijtimoiylashuvida virtual olam vositalaridan foydalanishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv mezonlari...................................................................26

**Rahimova M.** Oilaga kelinning moslashish jarayonini psixologik jihatdan tadqiq etish .......................32

**Sadullayev Sh.** Ayollarda oila-ish balansi ko‘rsatkichini shakllantirishning metodologik jihatlari ..........................................................................................................................37

## PSIXOLOGIYA

**Султанова А.А.** Стоит ли замалчивать о проблемах суицида в Узбекистане? ...............................44

**Ismaylova R.** Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda kognitiv xulq-atvor terapiyasi texnikalarining imkoniyatlari ..........................................................................................51

**Sharapova D.B.** ‘Housewife syndrome’ as a psychological problem ...................................................57

**Axmedova D.O.** Migrantlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili ..........................................................................................................................68

**Nurbayeva X.U.** Gender identifikatsiyaning etnomadaniy xususiyatlari ...............................................74

## ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

**Ochilova B.M.** Ta’lim – gender tengligini ta’minlashda kuchli vosita..................................................79

**Djoldasova S.** Ayollarning biznesdagi huquq va imkoniyatlarini kengaytiruvchi biznes modellar........88

**Komilova X.T.** Xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati mazmuni va tahlil...............................96

**Suvankulov M.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ichki ishlar organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga oid normalari tahlili.................................................102

**Nurdinova Sh.** Migratsiyaning feminizatsiyalashuvi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta’siri ......................108

**Nurmatova N.U.** Vitagen ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ..........................................................................................................115



**Butayeva Xurshida Yuldashovna,**
*O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlar agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti*
butayevaxurshida@gmail.com

# YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARNI OILAVIY BOLALAR UYI SHAROITIGA MOSLASHTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** *Maqolada yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning oilaviy bolalar uyiga moslashishi jarayonidagi sotsiologik xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, ushbu jarayonning asosiy jihatlari, bolalarning ijtimoiy muhitga moslashishdagi qiyinchiliklari va tarbiyachilarning roli yoritilgan. Tadqiqotda hissiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy integratsiyaning moslashuvga ta'siri tahlil qilindi.*

**Tayanch so'zlar:** *yetim bolalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, oilaviy bolalar uyi, sotsiologik moslashuv, ijtimoiy integratsiya, hissiy qo'llab-quvvatlash, tarbiyachilar roli, moslashuv jarayoni, psixologik travma, ijtimoiylashtirish, oila dinamikasi, bolalar huquqlari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlari, bolalar farovonligi, oilaviy munosabatlar.*

**Аннотация.** *В статье изучаются социологические особенности детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, в процессе адаптации в семейном детском доме. Выделены основные аспекты этого процесса – трудности адаптации детей к социальной среде и роль воспитателей. В исследовании анализируется влияние эмоциональной поддержки и социальной интеграции на адаптацию.*

**Ключевые слова:** *дети-сироты, дети, оставшиеся без попечения родителей, семейный детский дом, социологическая адаптация, социальная интеграция, эмоциональная поддержка, роль педагогов, процесс адаптации, психологические травмы, социализация, семейная динамика, права детей, сети социальной поддержки, благополучие детей, семейные отношения.*

**Annotation.** *The article examines the sociological characteristics of orphans and children who were left without parental care in the process of adaptation to a family orphanage. The main aspects of this process are highlighted as children's difficulties in adapting to the social environment and the role of educators. The study analyzes the impact of emotional support and social integration on adaptation.*

**Keywords:** *orphans, children without parental care, family orphanage, sociological adaptation, social integration, emotional support, role of educators, adaptation process, psychological traumas, socialization, family dynamics, children's rights, social support networks, child welfare, family relationships.*

**Kirish.** Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar jamiyatning eng zaif va himoyaga muhtoj qatlamlaridan sanaladi. Ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasi va psixologik barqarorligi jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa bunday bolalarni oilaviy bolalar uylari sharoitiga moslashtirish jarayoni nafaqat ularning kelajakdagi hayoti, balki jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oilaviy bolalar uylariga joylashtirilgan bolalar o'z hayotlarida og'ir ruhiy va ijtimoiy travmalarni boshdan kechirgan bo'lishi mumkin. Ular ota-onalaridan ajralgan, ko'pincha zo'ravonlik, beparvolik yoki boshqa og'ir sharoitlar tufayli o'zlarini ijtimoiy jihatdan chetga surilgandek his qilishi mumkin. Bunday bolalar uchun yangi muhitga moslashish, yangi odamlar bilan aloqalar o'rnatish va ularning qo'llab-quvvatlash tizimiga integratsiyalashish jarayoni juda murakkab bo'lishi tabiiy. Shu bois, bunday bolalarni oilaviy bolalar uylari sharoitiga moslashtirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash, shaxs sifatida shakllanishiga yordam berish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash uchun qator kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu jarayonda bolalar uylarining tashkil etilish shakllari, unda ishlovchi mutaxassislar, ta'lim va tarbiya jarayonining mazmuni va metodologiyasi, shuningdek, bolalarning ijtimoiy moslashuvi uchun yaratib beriladigan sharoitlar muhim o'rin tutadi.

"Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy dunyoda, ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy qiyinchiliklar va oilaviy munosabatlardagi inqirozlar tufayli yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning soni ortib bormoqda. Shu sababli ularni oilaviy bolalar uylariga samarali moslashtirish masalasi nafaqat ijtimoiy, balki pedagogik, psixologik va tibbiy nuqtayi nazardan ham keng ko'lamda o'rganilishi zarur[1]".

Mazkur tadqiqot yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyi sharoitiga moslashtirish jarayonida duch kelinadigan asosiy muammolarni aniqlash, ularni hal etish yo'llarini tavsiya etish, shuningdek, bu bo'yicha samarali metodlarni ishlab chiqish va joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilgan. Tadqiqotning natijalari nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bolalar uylari tizimini takomillashtirishga, bolalarning yangi muhitga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlashga qaratilgan kompleks choralarni belgilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot bolalarning yangi muhitga moslashuv jarayonini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy va psixologik strategiyalarni ishlab chiqishda asosiy manba sifatida qaralishi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy yondashuvlarni taklif etadi. Tadqiqot natijalari bolalarning oilaviy bolalar uylariga moslashuvini yaxshilash uchun dolzarb tavsiyalarni ishlab chiqishda asosiy rol o'ynaydi va kelgusida bunday bolalar bilan ishlash jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

**Maqsad va uni asoslash.** Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uylarida yangi hayot sharoitlariga moslashtirish jarayonini sotsiologik nuqtayi nazardan o'rganish va tahlil qilishdir. Shu bilan birga, bolalarning yangi muhitga muvaffaqiyatli moslashishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning psixologik va hissiy holatlarini tushunish hamda tarbiyachilar va ijtimoiy ishchilarning bu jarayondagi o'rni va ta'sirini baholash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Maqsadning ahamiyati quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Ijtimoiy moslashuvning murakkabligi: yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar ko'pincha travmatik tajribalar va shaxsiy yo'qotishlar tufayli ijtimoiy moslashuvda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. "Ushbu bolalarning oilaviy bolalar uylarida o'zlarini xavfsiz va qabul qilingan his qilishlari uchun zarur bo'lgan ijtimoiy va psixologik yordamni o'rganish, ularning yangi hayot sharoitlariga moslashishlariga yordam beradi[2]".

"Tarbiyachilar va ijtimoiy ishchilarning roli: bolalar uylarida faoliyat olib boradigan tarbiyachilar va ijtimoiy ishchilar bu bolalarning yangi muhitga moslashish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ularning bolalarga nisbatan munosabati, taqdim etiladigan hissiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi, bolalarning yangi hayot sharoitlariga tezroq va muvaffaqiyatli moslashishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ushbu rol va qo'llab-quvvatlashning qanday qilib samarali amalga oshirilishini o'rganish zarurdir[3]".

---

1 Bowlby J. Attachment and Loss. – New York: Basic Books, 1969. pp. 152-174.

2 Abdukarimov Sh. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – B. 223-241.

3 Vigotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. pp. 94-120.

"Ilg'or amaliyotlar va strategiyalarni ishlab chiqish: tadqiqot natijalari oilaviy bolalar uylarida bolalarning ijtimoiy va psixologik moslashuvini yaxshilash uchun yangi amaliyotlar va strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi[4]". Bu strategiyalar, bolalarning hissiy holatini barqarorlashtirish, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va yangi muhitga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi.

Sotsiologik nuqtayi nazardan chuqur tahlil: ushbu tadqiqot bolalarning oilaviy bolalar uylariga moslashuv jarayonini sotsiologik jihatdan chuqurroq tushunish uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslarni taqdim etadi. Sotsiologik tahlil yordamida bolalar uylaridagi turli omillar (iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy munosabatlar, tarbiyachilar o'rtasidagi muloqot) va ularning bolalarning moslashuv jarayoniga ta'sirini aniqlash mumkin.

"Tadqiqotning maqsadiga erishish orqali nafaqat yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun moslashuv jarayonlarini osonlashtirishga ko'mak berish, balki umumiy bolalar uylarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar uchun samarali usullar va tavsiyalarni ishlab chiqish ham maqsad qilib qo'yilgan. Bu esa kelajakda bolalar uylarining samaradorligini oshirishga va ushbu bolalarning ijtimoiy integratsiyasini yaxshilashga yordam beradi[5]".

**Ilmiy muammoning tavsifi va uning yechimi.** Ilmiy muammo tavsifi: yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning oilaviy bolalar uylarida yangi hayot sharoitlariga moslashish jarayoni jiddiy va ko'p qirrali muammo hisoblanadi. Bunday bolalar o'z hayotlarida katta yo'qotishlar va travmatik tajribalarni boshdan kechirgan bo'lib, bu holatlar ularning ijtimoiy, psixologik va hissiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

"Moslashuv jarayonining murakkabligi ko'p jihatdan bolalarning oldingi hayotlarida olingan salbiy tajribalardan kelib chiqadi. Ular o'zlariga yangi hayot sharoitlarini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa o'z navbatida, ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasini sekinlashtiradi. Bundan tashqari, bolalar o'zlarini yangi muhitda qabul qilingan va xavfsiz his qilishlari uchun zarur bo'lgan psixologik yordam va hissiy qo'llab-quvvatlash yetarli darajada ta'minlanmasligi muammoga sabab bo'ladi. Bu muammo oilaviy bolalar uylarining samaradorligini pasaytiradi va bolalarning o'zlarini yomon his qilishiga olib keladi, bu esa ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi[6]".

"Tarbiyachilar va ijtimoiy ishchilarning bolalar bilan munosabatlari ham ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha tarbiyachilar yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmay, bolalarga to'g'ri yondashuvni topa olmaydilar, bu esa bolalarning moslashish jarayonini qiyinlashtiradi[7]". Bolalar uylari uchun mo'ljallangan metodologik qo'llanmalar va strategiyalar yo'qligi ushbu muammoni yanada keskinlashtiradi. Natijada bolalar o'zlarini yangi muhitda begona his qilishlari, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi va ijtimoiy munosabatlarda muammolarga duch kelishlari mumkin.

Ilmiy muammoning yechimi: ilmiy muammoning samarali yechimi bolalarning oilaviy bolalar uylariga moslashuv jarayonini yaxshilashga yo'naltirilgan maxsus dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bunda bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

*Psixologik qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashtirilishi.* Bolalar uylari uchun psixologik yordam ko'rsatish dasturlari ishlab chiqilishi zarur. "Bu dasturlar bolalarning travmalarini yengib o'tishlariga, o'zlarini yangi muhitda qabul qilingan va xavfsiz his qilishlariga yordam beradi. Shu bilan birga, psixologik yordam xizmatlarini rivojlantirish va bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash uchun alohida dasturlar ishlab chiqish zarur[8]".

*Tarbiyachilar va ijtimoiy ishchilar uchun malaka oshirish dasturlari.* Bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachilar va ijtimoiy ishchilar uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari tashkil etilishi kerak. Ushbu kurslar bolalar bilan ishlash bo'yicha yangi metodologik yondashuvlarni o'rgatish, bolalarning hissiy va psixologik ehtiyojlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

*"Ilg'or metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish.* Oilaviy bolalar uylaridagi bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun ilg'or

[4] Omonov R. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – B. 112-129.

[5] Hasanov A. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 45-67.

[6] Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper Row, 1954. pp. 201-219.

[7] Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. pp. 67-89.

[8] Uzoqov N. Bola tarbiyasining psixologik asoslari. – Samarqand: SamDU, 2003. – B. 130-147.

metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bu yondashuvlar bolalar bilan individual ishlashni, ular uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bolalarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yo‘naltirilgan dasturlar ham ishlab chiqilishi kerak[9]”.

*Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining kengaytirilishi.* Bolalar uylarida yashayotgan bolalar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish lozim. Bu tizim bolalarning jamiyat bilan yaqin aloqalarini o‘rnatishga yordam beradi, ularning yangi hayot sharoitlariga moslashuvini osonlashtiradi.

*“Ilmiy tadqiqotlar va tajribalar asosida yangi yondashuvlarni ishlab chiqish.* Bolalar uylarida bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun ilg‘or ilmiy tadqiqotlar va tajribalar asosida yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish kerak. Ushbu yondashuvlar bolalarning yangi muhitda muvaffaqiyatli integratsiya qilinishiga yordam beradi va ularning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[10]”.

Umuman olganda, ushbu muammoning yechimi bolalarning oilaviy bolalar uylarida muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlash uchun keng ko‘lamli, kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu maqsadda ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash, bolalarning yangi hayot sharoitlariga osonroq moslashishiga va ularning ijtimoiy rivojlanishini yaxshilashga imkon beradi.

**Yakuniy qism.** Xulosa qilib aytganda, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning oilaviy bolalar uylari sharoitlariga moslashuvi jamiyatimizda jiddiy ilmiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ushbu muammolarni chuqur o‘rganish va samarali yechimlar topish uchun kompleks yondashuv zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bolalarning yangi hayot sharoitlariga muvaffaqiyatli integratsiyasi ularning oldingi travmatik tajribalari va yangi muhitda beriladigan psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan bevosita bog‘liq. Shu bilan bir qatorda, tarbiyachilar va ijtimoiy ishchilarning malakasi, bolalar bilan ishlashdagi yondashuvlar va bolalar uylarida qo‘llanadigan metodologiyalar ham bolalarning moslashuv jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada psixologik yordam tizimini rivojlantirish, tarbiyachilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, bolalarga individual yondashuvni joriy etish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish kabi choralar ko‘rilishi kerak. Shuningdek, ilg‘or ilmiy tadqiqotlar va tajribalarga asoslangan metodologiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bolalarning yangi muhitda muvaffaqiyatli integratsiyasiga yordam beradi. Mazkur tadqiqotning natijalari oilaviy bolalar uylarida bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilashda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tadqiqot bolalar uylari tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning rivojlanishiga xizmat qiladigan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim qadamdir. Tadqiqot natijalari kelgusida bolalar uylari uchun metodologik qo‘llanmalar yaratish hamda bolalarning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga ko‘mak beradi.

[9] Макаренко А.С. Педагогическая поэма. – Москва: Просвещение, 1988. – С. 56-78.

[10] Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton Company, 1968. pp. 85-102.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Bowlby J. Attachment and Loss. – New York: Basic Books, 1969. pp. 152-174.
2. Abdukarimov Sh. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – B. 223-241.
3. Vigotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. pp. 94-120.
4. Omonov R. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – b. 112-129.
5. Hasanov A. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 45-67.
6. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper Row, 1954. – pp. 201-219.
7. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. pp. 67-89.
8. Uzoqov N. Bola tarbiyasining psixologik asoslari. – Samarqand: SamDU, 2003. – B. 130-147.
9. Макаренко А.С. Педагогическая поэма. – Москва: Просвещение, 1988. – С. 56-78.
10. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton Company, 1968. pp. 85-102.

**MUASSIS:**

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir oʻrinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova Oʻ., Razzakova N., Sobirova E., Jabborov U.**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*
*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*

1940

Nashriyot roʻyxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.
“Times New Roman” garniturasi. Qogʻoz bichimi: 60x84 1/8
Nashriyot bosma tabogʻi 7,2.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulugʻbek tumani,
M.Ismoiliy koʻchasi 1-G uy.